

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TRANSPORT VAZIRLIGI

“O‘ZAERONAVIGATSIYA”
MARKAZI DAVLAT UNITAR
KORXONASI



MINISTRY OF TRANSPORT OF
THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN

CENTER
“UZAERONAVIGATION”
STATE UNITARY ENTERPRISE

BUYRUQ

Toshkent sh.

23 dekabr 2025 yil.

699-son

**“Uchuvchisiz uchish apparatlarining (UUA)
parvozlari bo‘yicha ruxsatnomalarni berish
uchun to‘lovlarning undirish Tartibi”ni
tasdiqlash to‘g‘risida”**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining turli sohalarida UUA dan foydalanishni rivojlantirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. 2026-yil 01-yanvardan boshlab quyidagilar belgilansin:
- “Uchuvchisiz uchish apparatlarining parvozlari bo‘yicha ruxsatnomalarni berish uchun to‘lovlarning undirish Tartibi” 1-chi ilovaga muvofiq tasdiqlansin va tasdiqlangan kundan boshlab amaliyotda qo‘llash uchun kiritilsin.
2. Bir buyurtmaning qiymati ushbu Tartib chiqarilgan paytdagi O‘zbekiston Respublikasida belgilangan BHMning (bazaviy hisoblash miqdori - 412 000 so‘m) 70 foizida QQSni hisobga olmagan holda – **288 400** so‘mni tashkil etishi qabul qilinsin. BHM o‘zgartirilgan holatlarda xizmatning narxi avtomatik ravishda o‘zgaritirilishi belgilansin.
3. Axborot texnologiyalari Boshqarmasi boshlig‘i A.Klichev ushbu Tartibni hamda Buyruqni O‘ANM DUK rasmiy saytiga joylashtirsin.
4. Umumiy bo‘lim (I.Shadmanov) ushbu buyruqni “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK barcha manfaatdor boshqarma, bo‘lim va xizmatlariga yetkazilishini ta‘minlasin.
5. 2025-yil 14-fevraldagi 23-sonli buyruq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
6. Mazkur buyruqning ijro nazorati faoliyati yo‘nalishi qismida direktorning birinchi o‘rinbosari M.Suleymanov va MIB boshlig‘i N.Ananova zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



D. Djumayev

Uchuvchisiz uchish apparatlarining parvozlari bo‘yicha ruxsatnomalarni berish uchun to‘lovlarning undirish TARTIBI

1. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Tartib uchuvchisiz uchish apparatlarining parvozlari bo‘yicha ruxsatnomalarni berish uchun to‘lovlarni undirish qoidalarini belgilaydi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar va qisqartmalardan foydalaniladi:

Aeronavigatsiya yig‘imlari bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – **ANYB**) – ko‘rsatilgan xizmatlar uchun hisob-fakturalarni shakllantirish va taqdim etish maqsadida kelib tushgan axborotlarni qayta ishlash bo‘yicha javobgar bo‘lgan “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning tarkibiy bo‘limi;

uchuvchisiz uchish apparatlari (keyingi o‘rinlarda – **UUA**) – parvozlarni uchuvchisiz amalga oshiradigan yoki masofadan turib to‘liq boshqariladigan yoxud dasturlashtiriladigan va parvoz paytida to‘liq avtonom bo‘lgan (aviamodellar va o‘yinchoq havo kemalari bundan mustasno) havo kemalari hisoblanadi. Uchuvchisiz uchish apparati uchuvchisiz va masofadan boshqariladigan havo kemalar tirkumini o‘zida birlashtirib, odatda ulardan yagona tizim sifatida foydalaniladi;

HHFvaB YaT BM FS (keyingi o‘rinlarda – **BM**) – “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning Havodagi hududdan foydalanish va boshqarishning Yagona tizimi Bosh markazining fuqarolik sektori – UUA parvozlari buyurtmalarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartib-taomillarini amalga oshiruvchi xizmat.

3. Havo hududidan foydalanish uchun buyurtmalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.11.2022-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 658-sonli qarorining “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va davlat aviatsiyasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish hamda ularni saqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomini 6-Ilovasi bilan nazarda tutilgan talablarga muvofiq belgilanadi.

2. UUA PARVOZLARIGA RUXSAT BERISH BO‘YICHA XIZMATLARNING NARXINI HISOBLASH TARTIBI

4. Bir ruxsatnomaning qiymati ushbu Tartib chiqarilgan paytdagi O‘zbekiston Respublikasida belgilangan BHMning (bazaviy hisoblash miqdori — **412 000** so‘m) QQSni hisobga olmagan holda **70** foizini — **288 400** so‘mni tashkil etadi. BHM o‘zgartirilgan holatlarda xizmatning narxi avtomatik ravishda o‘zgaradi.

5. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining turli sohalarida UUA dan foydalanishni rivojlantirish maqsadida quyidagi tarif rejalarini joriy etildi:

- bir martalik, tarif rejasining nomi — “**SafeSky-1**”;
- oylik, tarif rejasining nomi — “**SafeSky -30**”;
- mavsumiy (3 oy), tarif rejasining nomi — “**SafeSky -90**”;
- yarim yillik (6 oy), tarif rejasining nomi — “**SafeSky -180**”;
- yillik, tarif rejasining nomi — “**SafeSky -365**”.

Tarif rejalarining narxi (QQSni hisobga olmagan holda)

Shifr shkalasi	SafeSky - 1	SafeSky – 30	SafeSky – 90	SafeSky - 180	SafeSky - 365
D1	288 400	7 036 960	18 270 140	31 320 240	42 106 400
D2	317 240	7 740 656	20 097 154	34 452 264	46 317 040
D3	346 080	8 444 352	21 924 168	37 584 288	50 527 680
D4	403 760	9 851 744	25 578 196	43 848 336	58 948 960
D5	519 120	12 666 528	32 886 252	56 376 432	75 791 520

Shartnoma tuzishda Buyurtmachi istalgan turdagi tarif rejasini tanlashi mumkin. Shartnomaning amal qilish davrida tanlanayotgan oyining 1-sanasidan boshlab tarif rejasini o‘zgartirishga ruxsat beriladi. Tarif rejasining narxi tarif rejasida belgilangan muddat davomida taqdim etilayotgan buyurtmalar soniga (“**SafeSky-1**” dan tashqari) **bog‘liq bo‘lmaydi**. Shartnoma shartlari bilan nazarda tutilgan oldindan to‘lov miqdori tanlangan tarif rejasiga muvofiq holda hisobga olinadi

(“SafeSky-1”, “SafeSky-30” – xizmatlar narxining kamida 15 foizi; “SafeSky-90” “SafeSky-180”, “SafeSky-365”– kamida oylik miqdor).

6. 1 ta buyurtmada dronlar soni bo‘yicha differentsiyalashtirilgan shkala:

Shifr shkalasi	1 ta buyurtmada dronlar soni	Narxlarning oshirish koeffitsienti (dronlar soniga nisbatan)
D1	1 ta dron	1
D2	2 ta drondan 10 drongacha	1,10
D3	11 ta drondan 30 drongacha	1,20
D4	31 ta drondan 50 drongacha	1,40
D5	51 ta dron va undan yuqori	1,80

7. BM har oyda mahalliy tarmoq orqali reyestrda muvofiq taqdim etilgan xizmatlar haqidagi axborotlarni hisob-fakturalarni taqdim etish uchun ANYBga uzatadi. ANYBga axborotni uzatish jarayonida BM tomonidan shkala shifrlari va tarif rejaları ko‘rsatilishi lozimdir.

Misol:

Sana	Buyurtma raqami	Uchib ketish vaqti	Qo‘nish vaqti	Buyurtmachi	Shifr shkalasi	Tarif rejasi
03.01.2025	1	04:00	13:00	Geoinnovatsiya Markazi	D1	SafeSky
04.01.2025	1	10:00	17:00	“Enter Engineering”	D 2	SafeSky 30

8. “SafeSky-30”, “SafeSky-90”, “SafeSky-180”, “SafeSky-365” tarif rejalariga bonus sifatida “SafeSky” mobil ilovasiga kirish imkoniyati taqdim etiladi.

3. YAKUNIY QOIDALAR

9. O‘ANM DUKning barcha manfaatdor boshqarmalari, bo‘limlari va xizmatlari tomonidan ushbu Tartibning qoidalarini ijro etilishi majburiy.

10. Ushbu Tartibning qoidalariga rioya qilmagan aybdor shaxslarga nisbatan O‘ANM DUKning ichki local hujjatlariga muvofiq javobgarlik belgilanadi.